

ERKIN VOHIDOV ASARLARINING BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'RGANILISHI

Nodiraxon Erkaboyeva *Qo'qon DPI magistri*
Rahbar: Zokirjon Isaqov, *filol. fan. nomzodi, dotsent.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov hayoti va ijodining boshlang'ich sinf darsliklarida berilishi tahlil etilib, o'quvchilarda adib asarlarining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirishning dars hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llash bo'yicha tavsiyalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *hazil-mutoyiba, milliy ruh, ilmiy-ommabop matn, mustaqil ish, adabiy kecha, qobiliyat, doston, audioimatn, she'r, jadval, "Blits-so'rov" metodi, asar qahramoni, so'z tarixi.*

Kirish. Adabiyotimizning yirik vakillaridan biri bo'lgan, noyob iqtidor egasi Erkin Vohidov o'zining milliy g'oya va an'alarimiz singdirilgan sodda tilli she'rlari, ilmiy va publitsistik maqolalari, nodir tarjimalari bilan yosh avlod kamoloti, ta'lim va tarbiyasiga ulkan ta'sir o'tkaza olgan serqirra ijodkor ekanligi har bir ijod ahli, kitobxonga ma'lum va mashhur. Ayniqsa, shoirning rang-barang uslubdagi she'rlaridan o'rin olgan hazil-mutoyibalari o'qiguvchini kulish barobarida she'rda yashiringan asl haqiqatni ham anglashga undaydi:

Mehmoningman – boy bo'lsang,

Yayrab yeyman, ichaman.

Lekin omading ketsa,

Darhol sendan kechaman.

Bugun baland martabam,

Sen ham bag'ring ochib qol.

Ertaga ishdan ketsam,

Tiraqaylab qochib qol.

Yoki azaldan mehmondo'stlikni yuksak fazilat deb bilgan,
go'dakligidanoq bolasiga sabr tushunchasini singdirmoqchi bo'lgan
o'zbeklar uchun

Meva berma bolangga,

Asra katta xolangga.

Mahkam berkit, yashavor,

Qoraytirib tashlavor.

kabi xalqona urf-udum, axloqiy me'yorlar, milliy ruh yengil kulgu bilan ifodalanadi[11.22].

Asosiy qism

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun asosiy mutolaa kitobi bo'lgan "O'qish savodxonligi" darsligida ko'pgina bolalar shoir va yozuvchilari bilan bir qatorda boshqa ijodkor[1.71]larning ham ijodiy merosi, hayotini o'rganishga qaratilgan ma'lumotlar jamlangan bo'lib, bu yosh kitobxonlarimizda fan sohasiga chuqurroq kirib borishlari uchun yo'nalish vazifasini bajaradi. Milliy o'quv dastur asosida tuzilgan "Ona tili va o'qish savodxonligi" kitobida o'quvchilar "Adash dedim, adashdim" nomli ilmiy-ommabop matni[5.42], "Nutq haqida" she'ri[5.63], "Matmusaning qo'shig'i" hamda "Matmusaning dutori" audiomatnlari[5.67] orqali shoir asarlari bilan yaqindan tanishgandilar. Amaldagi darsliklarni tahlil qilganimizda shu narsa aniq bo'ldiki, Erkin Vohidov asarlari uchun uzviylashtirilgan taqvim reja bo'yicha hech qanday o'quv soatlari ajratilmay, balki yondosh mavzu sifatida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib o'qitishga qaratilgan topshiriqlar [2.37; 8.52] va mustaqil ishlar [3.11; 4.47] shaklida berilgan. Darsliklarimizda shoir asarlariga doir ma'lumotlar juda ham oz miqdorda ekanligi bir tomondan achinarli hol, deb qaralsa, ikkinchi tomondan o'qituvchilar bilan birga o'quvchilarni ham mustaqil izlanishga, o'z ustida tinmay ishlashga undovchi holatdir. Bu o'rinda ustozlarimiz darslik ma'lumotlariga tayanib qolmasdan, bo'lim yuzasidan takrorlash, sinfdan tashqari o'qish, sinf soati darslarida Erkin Vohidovning hayoti va ijodiga oid o'quvchilar yoshiga mos, ular tushunishi qiyin bo'lmagan ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega ma'lumotlarni berib borishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda, albatta, zerikarli og'zaki so'zlab berishdan qochib, har bir ijodkor merosini o'rgatishda innovatsion metodlarga tayanish ko'zlangan maqsadga erishishda katta yordamchi bo'libgina qolmay, zamonaviy metodlar asosida berilgan ma'lumotlar o'quvchilar xotirasida jadvallar, sxemalar, turli obrazlar ko'rinishida doimiy

saqlanishiga yordam beradi. Yuqori sinf o'quvchilari bilan hamjihatlikda turli adabiy kechalarni tashkil etish ham ayni muddao. O'quvchilarda she'rning ichki va tashqi mazmunini to'g'ri anglash, badiiy asarni tahlil qila olish, badiiy didni shakllantirishda puxta rejalashtirilgan bunday kechalarni o'tkazish samarali usuldir.

E'tiboringizni 2–4-sinf "Tarbiya" darsligidagi "Men va mening fazilatlarim" [9.52], "Ulg'ayaman va rivojlanaman" bo'limlariga qaratmoqchimiz. Mazkur bo'limlardan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarning qiziqish, iste'dod va qobiliyatlarini aniqlash va ularni kasbga yo'naltirish etib belgilangan. Psixologik nuqtayi nazardan qobiliyat insonga berilgan in'om sifatida qaraladi va egallangan ko'nikma, malakalar bilan takomillashib boradi. Azaldan qaysi kasb-hunarni egallama, eng birinchi navbatda inson bo'lib, barcha insoniy fazilatlarni o'zida jamlash kerakligi aytiladi. Shuning uchun ham bo'limning birinchi mavzusi aynan Erkin Vohidovning "Nido" dostonidan olingan:

Bobolarning hikmati
Hayotga yorug' yo'ldir.
Otang bolasi bo'lma,
Odam bolasi bo'l der.
Bu so'zni ilk bor menga
O'rgatgan otam edi.
Men otam farzandiman,
U esa odam edi.

parcha bilan boshlanadi[9.52]. Ajratilgan o‘quv soatlari davomida (2-sinf 2 soat, 4-sinflar uchun 7 soat) ”Donishqishloq latifalari” asaridan jamlangan ”Matmusaning dutori”, ”Matmusaning qo‘shig‘i” audioimatni yoki she’ri bilan tanishtirishni yosh iqtidor egalari uchun o‘rinli, deb bildik. Mazkur asarlar jamiyatdagi iste’dodi bo‘lmasa ham, o‘zini iste’dodli deb bilish, o‘ziga ortiqcha baho berish, qo‘lidan kelmaydigan ishni qilaverish, maqtanchoqlik illatlari qoralangan asar sifatida o‘quvchilarga saboq beradi. Mavzuni o‘rganish davomida o‘quvchilarimiz ”Rost” yoki ”Yolg‘on” jadvalini eshitganlari asosida tasdiqlaydilar. Ushbu jadvalni 4-sinf o‘quvchilariga she’r mazmunini tushuntirishsiz bajartirish mumkin, lekin 2-sinf uchun izoh kerak bo‘lganligidan, ulardan shu ma’lumotlarni ”Blits-so‘rov” metodini qo‘llagan holda so‘rash kifoya qiladi. Faqat o‘quvchilardan qisqa muddat ichida aniq va lo‘nda javob berish, fikrlar takrorlanmasligi talab qilinadi.

Matmusaning qo‘shig‘i			
T/r	MA’LUMOTLAR	Rost	Yolg‘on
1	Matmusaning bekorchilikka vaqti yo‘q edi		+
2	Matmusadan o‘tadigan hofiz yo‘q		+
3	Hamma uning qo‘shiqlarini maza qilib eshitardi		+
4	Odamlarni uni to‘ylarga taklif qilishmas edi	+	
5	U kelgan yerdan odamlar qochar edi	+	
6	Qishloqdagilar tuni bilan uning qo‘shiqlarini tinglashar edi		+
7	Matmusani qishloq to‘rasi etib saylashdi	+	
8	Oqsoqollar Matmusa to‘ra bo‘lsa, qo‘shiq aytishga vaqti bo‘lmas, deb o‘ylashdi	+	

9	Donishqishloqqa endi oson bo'ldi		+
10	Qo'shig'ini maqtaganning ishi doim besh	+	
11	Matmusa endi faqat saharda qo'shiq aytardi		+
12	Donishqishloqda to'radan boshqa hech kim kuylamay qo'ydi	+	

She'r nomini tanishtirishingiz bilan qiziquvchan o'quvchilarimizda asar qahramonining ismi nega Matmusa deb atalishi, Donishqishloq qayerda ekanligi haqida savollar tug'iladi. O'quvchilarimizning bu kabi savollariga javob berishda quyidagicha yondashishni foydali deb bildik. Og'zaki nutqimizda Muhammad ismini Mamat, Mahamat, shu ismga qo'shib aytiladigan boshqa ismlarni Mamadali, Marasul, Mamashokir, Marayim deb talaffuz qilish holatlari ko'p uchraydi. Matmusa ham asli Muhammadmusodir, uni tilimizda qulay talaffuz qilishimiz uchun shunday ataymiz. Donishqishloq esa fe'l-atvorida ba'zi illat va nuqsonlar bo'lsa-da, soddadil, kamtar va kamsuqum, milliy qadriyatlarimizni o'zida saqlab qolgan o'zbek xalqidir. Bunday holatda "Matmusaning qishlog'i" she'rini o'qib eshittirish ham o'quvchilarda qishloq odamlari haqida keng tasavvurni hosil qiladi.

Erkin Vohidovning yana bir "So'z latofati" nomli asari ham borki, ushbu asar el bilan til haqida el tilida tillashishi, til jumboqlarini jonli til bilan yechib berishga urinishi bilan ajralib turadi. Asar dur marjoni donalaridek tizilib turgan 37 maqoladan iborat. Shulardan 28 maqola tilimizning xilma-xil muammolari, 9 tasi g'azallar tahliliga bag'ishlanadi[7]. Ushbu asar maqolalaridan ona tili fani "Asos va asosdosh so'zlar", "So'z yasovchi qo'shimchalar" mavzularida qo'llash tilimizdagi so'zlarning asli qanday ma'nolari mavjud ekanligi, tarixini ko'rsatadi. "O'ylasam, So'z olamining evrilishlari ulkan "musht ketdi" o'yini ekan. Har kalima minglar, millionlar tilidan o'tib, ba'zan asliyatga mutlaqo aloqasiz so'zlar paydo bo'larkan. Biz esak shahr-u qishloqlarimiz, ming xil ashyolarimiz, daraxt-u ko'katlarimiz nomini tanimay, asli nima edi, deb yurar ekanmiz. Qo'qon to'ng'izga kon

bo‘lgan, Forishning nomi Parij, Parkent aslida Parikent edi, deya taxminlar qilamiz. Haqiqat esa tilsim qulflik sirlar sandig‘i ichida yashirin, uni aniqlashdan ko‘ra toshbaqaning moshkichiriga aylanganini bilish osonroq ekan”, – deydi shoir asarning ”Ilmi g‘ayb” maqolasida[10.90]. Quyida o‘qituvchilar dars jarayonida foydalanishlari mumkin bo‘lgan maqolalardan na‘munalar keltiramiz:

Maosh va osh

Adash dedim, adashdim

Kenguru va Belmes

Teskari tushgan tovushlar

To‘nni kim teskari kiyadi?

Zimiston

Qoyil

Barkamol soddalik

Narxi navo va obu havo

Dasturxon

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, shoir asarlari o‘quvchilar ongiga milliy ruhni singdirishga, ular ma‘naviy dunyoqarashini kengaytirishga, nutqining o‘shishiga, mustaqil fikrlashini shakllantirishga, badiiy adabiyotga havas va mehr uyg‘otishga xizmat qiladi. Shunday ekan, Erkin Vohidov hayoti va ijodini o‘ganish quyi sinflarda ham o‘quv soatlari tarkibiga kiritilishi eng maqbul yo‘ldir. Filologiya fanlari doktori Yo‘ldoshali Solijonov ta’kidlaganidek, shoir she’rlari ko‘ngillarga orom, ruhimizga ko‘tarinkilik, vujudimizga madad bag‘ishlaydi. Shunday shoirni sevmaslik, asarlarini chin dildan suyib mutolaa qilmaslik mumkin emas[11]!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aydarova U. va boshq. O‘qish savodxonligi. 3-sinf. II qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 80 b.
2. Aydarova U. va boshq. O‘qish savodxonligi. 4-sinf. II qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 80 b.
3. Baynazarova D. Ona tili. 4-sinf. IV qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 88 b.

4. Baynazarova D., Toirova M. Ona tili. 4-sinf. II qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 88 b.
5. Mavlonova K., Azimova I. va boshq. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 3-sinf. II qism. – Toshkent: RTM, 2022. – 144 b.
6. Muslimov N., Usmonboyeva M. va boshq. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. / Toshkent, 2015. – 208 b.
7. Nurmonov A. So‘z mulkiga sayr. // Sharq yulduzi. – 2014. – 6-son.
8. Solijonov Y. Ruhiyatni yoritgan she’riyat. // Sharq yulduzi. 2013. – 2-son. 153-b.
9. Usmanova O.V., Risjukova Y.V. Tarbiya. 2-sinf. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 112 b.
10. Vohidov E. So‘z latofati. / Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 152 b.
11. Yo‘ldosheva H. Erkin Vohidov she’riyatida milliy ruh ifodasi. // Farg‘ona: Classik, 2023. – 110 b.
12. I.D. Inomjonovna [Boshlang‘ich sinflarda individual ishlash texnologiyasi va uning samaradorligi](#). Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies, 2023. 207-212.
13. Mirzaevich, P. I. G. (2025). Expression Of Numeratives In Phraseology In The Turkic Languages (Uzbek, Kazakh and Karakalpak languages). *International Journal Of Advanced Research In Education, Technology And Management*, 4(4), 109-116.
14. Abdulxayeva, X. (2025). Adabiyot darslarini tashkil etishda pisa xalqaro baholash dasturining ahamiyati. *Taraqqiyot Spektri*, 1(12), 281-288.